
**BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI VA O‘QISH FANLARINI O‘QITISHDA
ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA
XOS JIHATLARI**

Obidova Muqaddas Ro‘ziqulovna

Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti

Ta‘lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi

(Boshlang‘ich ta‘lim) yo‘nalishi 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada ona tili va o‘qish fanlarini o‘qitishda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari va shuningdek ilg‘or pedagogik texnologiyalardan hozirgi kunda foydalanishning unumdorligini oshirish, yosh avlodning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantirish, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarining tizimi haqida yoritib berilgan. Maqola shuningdek axborot texnologiyalarining o‘quvchilar motivatsiyasiga ijobiy ta‘sir etishini hamda kelajakda ta‘lim jarayonida ushbu texnologiyalardan foydalanishning yanada samaradorlikka erishish yo‘llari imkoniyatlarini yoritadi.

Kalit so‘zlar: zamonaviy axborot texnologiyalari, tadqiqot metodlari, integratsiya, pedagogik texnologiya, bilimlarni o‘zlashtirish.

ABSTRACT: In this article, the specific aspects of the use of modern information technologies in the teaching of the mother tongue and reading subjects, as well as increasing the productivity of using advanced pedagogical technologies today, forming the independent thinking process of the young generation, solid assimilation of knowledge, The system of free use of skills and qualifications is highlighted in practice. The article also shows the positive impact of information technology on students' motivation and the further use of these technologies in the educational process in the future. illuminates the possibilities of ways to achieve efficiency.

Key words: modern information technologies, research methods, integration, pedagogical technology, knowledge acquisition.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассмотрены конкретные аспекты использования современных информационных технологий в преподавании родного языка и предметов чтения, а также повышение продуктивности использования современных педагогических технологий, формирования самостоятельного мыслительного процесса подрастающего поколения, прочное усвоение знаний. Освещена на практике система свободного использования навыков и квалификации. В статье также показано положительное влияние информационных технологий на мотивацию студентов и дальнейшее использование этих технологий в образовательном процессе в будущем. освещаются возможности путей достижения эффективности.

Ключевые слова: современные информационные технологии, методы исследования, интеграция, педагогические технологии, приобретение знаний

KIRISH.

Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarning kirib kelishi jadallashmoqda va bu ta'lim jarayonini yanada sifatli tashkil etishga ta'sir ko'rsatayotgani ko'zga tashlanmoqda. Ona tili va o'qish savodxonligi o'z navbatida atrof-muhit, insoniy munosabatlar, Vatanning o'tmishi va hozirgi kundagi hayoti, unda insonlarning o'rni haqidagi o'quvchilar bilimni kengaytiradi, dunyoqarashlarining shakllanishiga, ma'naviy –axloqiy tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Darhaqiqat, zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida o'qitish jarayonida o'quvchilarning diqqatini jalb etish, ularning bilimlarini mustahkamlash shuningdek o'rganilayotgan mavzularni interaktiv shaklda taqdim etish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish fanlarini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish mavzusida ko'plab adabiyotlar keng tahlil etilgan. Bu adabiyotlar orqali zamonaviy axborot texnologiyalarning ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlab o'tilgan.

Baxtiyorov "Innovatsion yondashuvlar ta'lim jarayonida" asarida ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar ahamiyatini, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida o'quvchilarning qiziqishini oshirish, o'z-o'zini rivojlantirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini oshirish mumkinligini aytib o'tgan.

Vygotskiy o'zining „So'z orqali fikrlash“ nazariyasida o'qituvchining roli o'quvchi bilan o'zaro faol aloqada bo'lishi kerakligini ta'kidlagan.

Tal'at G'afforova „Boshlang'ich ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalar“ nomli qo'llanmasida ta'lim tizimidagi islohotlar munosabati bilan o'qish va ona tili fanlarini o'qitishda boshlang'ich ta'lim oldiga qo'yilgan talablar, shaxsni muayyan maqsadga yo'naltirish, mustaqil ish usullaridan foydalanishni taqozo etgan.

TADQIQOT METODLARI

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish fanlarini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni o'rganishda quyidagi tadqiqot metodlari qo'llaniladi.

So'rovnoma o'tkazish: O'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida so'rovnoma o'tkazish orqali zamonaviy axborot texnologiyaning ta'lim jarayonidagi ta'siri va ularning qiziqishini aniqlash. So'rovnoma natijalari orqali muammolarga yechim topish.

Muammoli o'qitish: Bu metod muammoga yechim topish bilan birga o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni oshiradi.

Didaktik o'yinlar: Didaktik o'yinda o'quvchilar qoidalarga amal qilishni o'rganadi. Chunki qoidalarga rioya qilish o'yin muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Eksperiment: Ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarni qo'llash orqali tajriba tashkil etish. Bu metod yordamida axborot texnologiyaning ta'lim samaradorligiga bo'lgan ta'sirini aniqlash mumkin bo'ladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqotlar va tahlillar negizida boshlang'ich sinflarda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish ta'lim jarayoni unumdorligini ,o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi,o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishini oshiradi,bilimlarni mustahkam o'zlashtirishini ta'minlaydi.SHu bilan birga zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va o'quvchilarning intellektual rivojlanish darajasini ta'minlaydi,turli xil fanlarga bo'lgan qiziqishini oshiradi.Ayniqsa keying hayot yo'lini tanlashda bu qiziqishlar asos vazifasini o'tash mumkin.

XULOSA

Boshlang'ich ta'limda ona tili va o'qish darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'limning rejalashtirilgan natijasiga erishishini kafolatlaydi.Shuningdek,bilimlarni o'rganish yaxlit jarayonida ta'lim shakllarini optimallashtirish ,insoniy imkoniyatlar,ularning o'zaro hamkorligini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.Ushbu texnologiya o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi,ta'lim jarayonini tizimli,texnologik yondashuvlar asosida qulaylashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Tal'at G'afforova.(2011)''Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogic texnologiyalar''.
- 2.Vygotskiy,L.S.(1978).Myshlenie rech.Moskva:Pedagogika.
- 3.X.G'ulomova,T.G'afforova(2011)''O'qish darslari uchun metodik qo'llanma''.
- 4.Qodirov,Farrux.''DESCRIPTION AND PERFORMANCE OF THE PROGRAM MAX STUDIO.''АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ШАРОИТИДА ИННОВАЦИЯЛАР'' мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман МАЪРУЗАЛАР ТУПЛАМИ(2019).